XALQ DEPUTATLARI OHANGARON SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 22-yanvar VII-6-7-10-214-K/25 Ohangaron shahri

Ohangaron shahri ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman (shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yo‘l xaritasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 4-apreldagi Toshkent viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3236-sonli xat orqali yuborilgan ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Ohangaron shahri ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha shahar komissiyasining 2024-yil 17-dekabrdagi 33- sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Ohangaron shahri ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha shahar komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan Ohangaron shahri bilan chegaradosh bo‘lgan Ohangaron va Piskent tumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi **1-ilovaga** hamda tayyorlangan kartografik chizmasi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yo‘l va boshqa tabiiy va sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligining shahar bo‘limi boshlig‘i J.Xalmatovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari hamda shahar hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi M.RAJABBOYEV

Xalq deputatlari Ohangaron shahri
Kengashining
2025-yil 22-yanvardagi
VII-6-7-10-214-K/25 -son qaroriga
1-ilova

1-ilova

Ohangaron shahribilan chegaradosh bo‘lgan Ohangaron va Piskent tumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi

Ohangaron shahri hamda Ohangaron, Piskent tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, A-373 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan nuqta boshlang’ich 1 - nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°54'10,070", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°35'59,639").*

A dan B gacha Ohangaron tumani yerlari bilan 1 - 17 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i A-373 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2417 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°55'27,434", sharqiy uzoqlik 69°35'49,242").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i A-373 avtomobil yo‘lidan temir yo‘liga o‘tib, keyin temir yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1254 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°55'18,613", sharqiy uzoqlik 69°36'41,536").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2188 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°55'02,966", sharqiy uzoqlik 69°38'12,738").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lini kesib o‘tib, keyin qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 495 metr, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 46 metr, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 207 metr masofada ferma devoriga o‘tadi va devor bo‘yab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 103 metr masofani o‘tib, devori bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°55'24,702", sharqiy uzoqlik 69°38'19,979").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i devor bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1171 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, keyin qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 90 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°56'04,663", sharqiy uzoqlik 69°38'29,263").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlidan beton ariqqa tutashadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 876 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 703 metr masofada qishloq ichki yoʻli va beton quvurni kesib oʻtib, beton quvur boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°56'19,095", sharqiy uzoqlik 69°39'18,989").*

7-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 981 metr masofani o'tib, ekin yeri chegarasi boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°56'06,691", sharqiy uzoqlik 69°39'59,198").*

8-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 304 metr masofada zavodga olib kiruvchi yoʻllarini kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 106 metr masofani oʻtib beton ariqqa oʻtadi soʻng sharqiy yoʻnalishda 28 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 39 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, keyin yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 23 metr masofani oʻtib, yo'l boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°55'52,998", sharqiy uzoqlik 69°39'55,370").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 45 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va chegara boʻylab yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 42 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 51 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 545 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°55'33,088", sharqiy uzoqlik 69°39'50,744").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1118 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1070 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54'31,429", sharqiy uzoqlik 69°40'12,836").*

11-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 27 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 57 metr masofada arqini kesib oʻtib ishlab chiqarish korxonasi devoriga oʻtadi, soʻng devor boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 228 metr masofani oʻtadi, soʻngra quruq chiziq orqali yoʻnalishni oʻzgartimagan holda 52 metr masofani oʻtib, Shovvozsoy soyiga tutashadi, keyin soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 331 metr masofada ishlab chiqarish korxonasi devoriga oʻtadi va devor boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 200 metr masofani oʻtib, Shovvozsoy qirgʻogʻiga oʻtadi soʻngra soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 97 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 218 metr masofada temir yoʻlni kesib oʻtib, A-373 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°53'57,526", sharqiy uzoqlik 69°40'11,196").*

12-nuqtadan chegara chizigʻi A-373 avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yo'lning sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 845 metr, soʻng janubiy-g'arbiy yoʻnalishda 517 metr masofada Ohangaron

daryosiga tutashadi, so‘ngra daryoning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 254 metr masofani o’tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°53'15,499", sharqiy uzoqlik 69°39'53,640").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo’lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g’arbiy yo‘nalishda 16 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo’lning janub tomoni bilan umumiy g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 146 metr masofani o’tib, yo’l bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°53'16,098", sharqiy uzoqlik 69°39'47,277").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan Ohangaron daryosiga tutashadi, keyin daryoning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy g’arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 726 metr masofani o’tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°53'17,930", sharqiy uzoqlik 69°39'19,968").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i Ohangaron daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1794 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°53'30,517", sharqiy uzoqlik 69°38'12,245").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 58 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 228 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 513 metr masofani o‘tib, Ohangaron shahri hamda Ohangaron, Piskent tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, tomorqa chegarasi bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°53'39,841", sharqiy uzoqlik 69°37'44,772").*

B dan A gacha Piskent tumani yerlari bilan 17 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

17-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa chegarasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 52 metr, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda 96 metr masofani o‘tib, tomorqa chegarsi bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°53'43,362", sharqiy uzoqlik 69°37'46,343").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 750 metr masofani o‘tib, tomorqa chegarsi bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°53'56,081", sharqiy uzoqlik 69°37'21,810").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 958 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54'03,564", sharqiy uzoqlik 69°36'45,738").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 299 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 20 metr masofada qabriston devoriga tutashadi va devor bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 12 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 8 metr masofani o‘tib, qabriston devorida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54'05,504", sharqiy uzoqlik 69°36'32,779").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i qabriston devoridan tovuq fermasi devoriga o‘tib, keyin tovuq fermasi devori bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha

burilishlarni hisobga olgan holda 753 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 12 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 56 metr masofani o‘tib, A-373a avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°54'10,070", sharqiy uzoqlik 69°35'59,639").*

Xalq deputatlari Ohangaron shahri
Kengashining
2025-yil 22-yanvardagi
VII-6-7-10-214-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2-ilova

Toshkent viloyati Ohangaron shahari ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik
CHIZMASI

